



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 28-iyul, № 152 (9323)

Seshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YANGI TOSHKENT TA'LIM, ILM-FAN, MADANIYAT VA INNOVATSIYALAR SHAHRI BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent shahrida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasida bo'ldi. Bu yerda shaharning keng ko'lamli maketi va raqamli xaritasi asosida qurilishlarning umumiy borishi, yirik obyektlarning o'zaro joylashuvi hamda navbatdagi bunyodkorlik rejalari haqida axborot berildi.

Transport va muhandislik infratuzilmasini qurilishlar bilan uyg'un rivojlantirish, yashil hududlar va jamoat makonlarini o'zaro bog'lash, Yangi Toshkentni poytaxtning amaldagi hududi bilan uzviy bog'lash masalalari ko'rib chiqildi. Barcha loyihalarni yaxlit shaharsozlik konsepsiyasi asosida, yuqori sifat va me'moriy uyg'unlikni ta'minlagan holda amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng Prezident Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Yangi Toshkentda barpo etilayotgan kampusini ko'zdan kechirdi.

Majmua Yangi Toshkent qurilishining

birinchi bosqichi doirasida bunyod etilmoqda. Ayni paytda rektorat va ayrim fakultetlar binolarida yakuniy qurilish va pardozlash ishlari olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari binolarning ichki makonlari, o'quv va ma'muriy xonalarning joylashuvi, muhandislik tarmoqlari hamda hududni obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. Mutasaddilar qurilishning borishi, binolarni jihozlash va kampusni foydalanishga tayyorlash choralarini haqida axborot berdi.

Yangi kampus tarkibida o'quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, talabalar turarjoylari, sport va madaniyat inshootlari bo'ladi. Bu yerda ta'lim, ilmiy tadqiqot va talabalar hayotini bir makonda uyg'unlashtirgan yaxlit muhit yaratiladi.

Universitetda xalqaro ta'lim standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish, boshqaruv tizimini "Yangi O'zbekiston" universiteti tajribasi asosida transformatsiya qilish

rejalashtirilgan. O'quv jarayonlarini zamonaviy raqamli platformalar orqali boshqarish ko'zda tutilgan.

Keyin davlatimiz rahbari Yangi Toshkentda barpo etilayotgan O'zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosidagi qurilish ishlari ko'zdan kechirdi.

Mazkur obyekt yangi shaharning asosiy ilm-fan va ma'rifat maskanlaridan biri sifatida bunyod etilmoqda. Yangi Toshkent qurilishi, avvalo, ta'lim va ma'rifat obyektlaridan boshlangan bo'lib, Milliy kutubxona ushbu konsepsiyada muhim o'rin tutadi.

Ayni paytda majmuada qurilish va pardozlash ishlarining 90 foizi bajarilgan. Kutubxonani joriy yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan to'rt qavatli bino bir vaqtning o'zida 1 ming 420 nafar kitobxonga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning me'moriy yechimida milliy an'analar va

zamonaviy uslub uyg'unlashtirilgan.

Kutubxonada kitob fondlarini saqlash, hisobga olish, ularning xavfsizligini ta'minlash va zararsizlantirish uchun maxsus yuqori texnologiyali xonalar tashkil etiladi. Xalqaro va milliy yirik kutubxonalarning elektron bazalaridan onlayn foydalanish imkoniyati ham yaratiladi.

Ko'zi ojiz fuqarolar uchun maxsus o'quv va tadqiqot muhiti, 300 o'rinli kafe, galereya, sport va dam olish hududlari barpo etiladi. Shu tariqa, kutubxona kitobxonlik, ilmiy izlanish va madaniy-ma'rifiy muloqotni birlashtiradigan zamonaviy markazga aylanadi.

Prezidentimiz qurilish va jihozlash ishlarini sifatli yakunlash, kutubxona fondi, raqamli xizmatlar hamda foydalanuvchilar uchun yaratiladigan sharoitlarni o'zaro uyg'un holda tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.



ENERGETIKA TARMOG'IDA SAMARALI BOSHQARUV VA MAS'ULIYAT – MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 27-iyul kuni yoqilg'i-energetika tarmog'idagi kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari so'nggi o'n yilda energetika sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganini ta'kidladi. Sohaga xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi.

Natijada energetika tarmog'iga 23 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritildi, joylarda umumiy quvvati 9,5 gigavatt bo'lgan elektr stansiyalari ishga tushirildi. Elektr va gaz tarmoqlari, podstansiyalar, transformatorlar hamda gaz taqsimlash qurilmalarini yangilashga 30 trillion so'm yo'natirildi.

Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, tizimni boshqarish, joylarda talab va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha jiddiy kamchiliklar saqlanib qolayotgani ko'rsatib o'tildi.

– Ochiq aytish kerak. Energetikada muammo mablag'da emas, chunki qancha kerak bo'lsa topib beryapmiz. Muammo tizimning boshqaruvida, – dedi Prezident.

Ayrim hududlarda infratuzilma deyarli bir xil bo'lsa-da, elektr va gaz ta'minoti sifati keskin farq qilishi qayd etildi. Bu, avvalo, rahbarlarning talabi, nazorati va shaxsiy mas'uliyati turlicha ekani bilan izohlandi.

Joriy yilning iyun-iyul oylarida elektr tarmoqlarida 4 mingga yaqin avariylar sodir bo'lgan. Oqibatda ayrim hududlarda aholi va tadbirkorlar 8 – 10 soatgacha elektrsiz qolgan. Ayni paytda ko'plab hududlarda iste'molning o'sishi va infratuzilmaga tushadigan yuklama oldindan hisobga olinmagan.

Tarmoqdagi elektr energiyasi yo'qotishlari 17,2 foizni tashkil

etmoqda. O'tgan olti oyda 4,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi yo'qotilgan.

ASKUE va ASKUG tizimlari joriy qilinganiga qaramay, yuz minglab elektr va gaz hisoblagichlari markazlashgan tizimga ma'lumot uzatmayotgani ko'rsatib o'tildi. Bu iste'molni to'g'ri hisobga olish, yo'qotishlar va debitor qarzdorlikni kamaytirishga to'sqinlik qilmoqda.

Davlatimiz rahbari energetika tizimidagi har bir rahbarning ishi, eng avvalo, odamlarning kundalik hayotida va tadbirkorlik faoliyatida sezilishi kerakligini ta'kidladi.

Tizimdagi jiddiy kamchiliklar uchun energetika vaziri va "Hududiy elektr tarmoqlari" rahbari lavozimidan ozod etildi. "Milliy elektr tarmoqlari", "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'ztransgaz" va "Hududgazta'minot" rahbarlariga

yil yakunigacha sinov muddati belgilandi.

Energetika vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" va "O'zenergoinspeksiya"ning yangi rahbarlari bugundan yangicha ish uslubini joriy qilishi shartliq qayd etildi.

Yig'ilishda elektr va gaz ta'minoti bilan bog'liq ishlarni tumanbay va mahallabay tashkil etish bo'yicha yangi tizim belgilab berildi. Har bir hududning aholi, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy obyektlar kesimida energiya iste'moli balansi shakllantirildi.

Qaysi mahallada tarmoq, transformator yoki gaz taqsimlash qurilmasini yangilash zarurligi aniq belgilanadi. Avariylarni kamaytirish, hisoblagichlarni yagona tizimga ulash, energiya yo'qotishlari va qarzdorlikni keskin qisqartirish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqiladi.



Mutolaa

PUBLITSISTIK TAFAKKUR QUDRATI

Odam – kechagi noqulayliklaru qiyinchiliklarni bir zumda unutib, bugungi qulayliklarga tez ko'nikadigan yaratiq. Bu xususiyat inson hayotiga ham, jamiyat tafakkuriga ham xos. Taniqli olim, mashhur publitsist, davlat va jamoat arbobi Qudratilla Rafiqovning "MILLAT SHAVKATI" kitobi – fikr ahlini ana shu nuqsondan qutulib, odamlar va butun jamiyat hayotida yuz berayotgan ijobiy jihatlarni payqashga, ularning paydo bo'lishiga sababchi shaxsiyatlar mehnatini qadrlashga chorlaydigan asar. Muallif jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarni baholash, sanab o'tish bilangina cheklanmaydi. U zohiriy voqealar ortidagi ma'nolarni izlaydi, bir qarashda o'zaro bog'liq bo'lmagan hodisalar o'rtasidagi ichki aloqani topadi va o'qirmanni ham shu jarayonga jalb qiladi.

Publitsist bilan voqeanavis o'rtasida farq bor. Voqeanavis voqeani so'zlab beradi. Publitsist esa nima uchun shunday bo'lgani, uning ortida qanday qonuniyat turgani va u jamiyat hayotida nimani o'zgartirayotganini anglashga harakat qiladi.

Qudratilla Rafiqov maqolalarida ana shunday teran tahliliy nigoh ko'zga yaqqol

tashlanib turadi. U mamlakatimiz hayotidagi o'zgarishlar haqida yozar ekan, voqeaning tashqi manzarasi bilan kifoyalanmaydi. U har bir bunyodkorlik ortida tafakkurdagi o'zgarish, har bir diplomatik qadam zamirida tarixiy xotira, har bir yutuq qatida millatning o'ziga qat'iy ishonchini ko'radi.



Fraksiyalar hayoti

IJTIMOIIY-IQTISODIIY MASALALARNING HUQUQIIY ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqeliklarga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyil palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida hudud va tarmoqlarda o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'rib chiqilgan masalalar haqida so'z yuritildi.

Tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, ortiqcha byurokratik to'siqlar, jarimalar va yig'imglarni qisqartirish, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash, milliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqish hamda investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirish bo'yicha



belgilab berilgan topshiriqlar mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishi ta'kidlandi. Shu bilan birga, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportbop korxonalarini rag'batlantirish mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilishi urg'ulandi.



O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

SAMIMIY MINNATDORLIK

Tavallud kunim munosabati bilan chin dildan tabriklab, samimiy qutlovlar va ezgu tilaklarini yo'llagan davlat va hukumat boshliqlariga, xorijiy siyosat va jamoat arboblari, ishbilarmon doiralar vakillariga, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoalariga, nuroniylar, yoshlar, xotin-qizlar va tadbirkorlarga, turli kasb egalari bo'lgan barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Mening sha'nimga bildirilgan bu tabrik va tilaklarni, avvalo, ko'p millatli xalqimiz va davlatimizga yuksak hurmat va ehtiram ifodasi, Yangi O'zbekistonning dunyo miqyosida ortib borayotgan obro'-e'tibori va nufuzining e'tirofi sifatida qabul qilaman.

Fursatdan foydalanib, bag'rikeng va oliyanob xalqimizga yana bir bor chin dildan o'zimning cheksiz mehrim va hurmatimni bildiraman.

Jonajon Vatanimizda erkin va farovon, obod hayot qurishga qaratilgan islohotlarimizni qo'llab-quvvatlab, ularda faol ishtirok etayotgan ko'p millatli xalqimizning aql-zakovati va fidokorona mehnati bilan oldimizga qo'ygan yuksak va sharaflı maqsadlarga albatta erishamiz deb ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Biz va jahon

PARLAMENT DIPLOMATIYASINING YANGI DAVRI

O'zbekiston tashabbusi bilan yana bir tarixiy rezolyutsiya qabul qilindi.



Shu yil 24-iyul kuni jahon siyosati va xalqaro diplomatiya tarixida Yangi O'zbekistonning mavqeini yangi, yuqori bosqichga olib chiqqan tarixiy voqea yuz berdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi.

Ushbu voqea nafaqat O'zbekistonning tashqi siyosiy muvaffaqiyati, balki dunyo miqyosida ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlashda parlament institutining rolini yangicha talqin etuvchi global burilish nuqtasi bo'ldi. Rezolyutsiyaning qabul qilinishi va unga dunyoning barcha qit'alaridan 61 ta davlat hammuallif bo'lgani – Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar falsafasi, ijtimoiy davlat qurish g'oyasi va parlament diplomatiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq va qat'iy qo'llab-quvvatlanayotganining yaqqol isboti.



Munosabat

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARINING GLOBAL E'TIROFI

Dunyo davlatlarining xalqaro maydondagi nufuzi nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy salohiyati, balki global muammolar yechimiga qaratilgan amaliy tashabbuslari bilan ham baholanmoqda.

Shu ma'noda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi asosida "Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyaning qabul qilinishi mamlakatimiz tashqi siyosatining yana bir muhim yutug'i.

Mazkur qaror xalqaro hamjamiyat parlamentlarni qonun ijodkorligi bilan cheklanib qolmaydigan, balki barqaror taraqqiyotni ta'minlashda muhim siyosiy institut sifatida ko'rayotganini namoyon qildi. Bu esa parlamentlar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida parlamentning vakolatlari va ta'sir doirasi kengaydi. Qonunlarning hayot bilan uyg'unligini ta'minlash, ijro hokimiyati faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini olib borish, aholi manfaatlarini himoya qilish hamda ochiq muloqot mexanizmlarini takomillashtirish borasida tizimli ishlar davom ettirilmoqda.



ENERGETIKA TARMOG'IDA SAMARALI BOSHQARUV VA MAS'ULIYAT – MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH OMILI

O'zA.

Taqdimot



Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining
Xalqaro munosabatlار,
tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy
investitsiyalar va turizm masalalari
qo‘mitasi a‘zosi.

*"Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev
yo'li" kitobi O'zbekistonda amalga
oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va
demokratik islohotlarning yangi davriga
bag'ishlangan.*

Kuni kecha Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahridagi Aliqul Usmonov nomidagi Milliy kutubxonada ham senator Qudratilla Rafiqov qalamiga mansub "Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li" kitobining qirg'iz tilidagi nashri taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tadbir doirasida O'zbekiston delegatsiyasi turkiy dunyoning buyuk adibi Chingiz Aytmatov uy-muzeyi hamda Bishkek shahridagi Xotira maydonida ham bo'lib, ushbu maskanlar faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Senator va yoshlar

Abituriyentlar uchun munosib shart-sharoitlar

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov Namangan viloyatida bo'lib, joylarda davlat dasturlari ijrosi, bandlikni ta'minlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash masalalarini o'rganagan edi.

Suhbat davomida yurtimizda oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarini ochiq, shaffof va adolatli tashkil etish, shuningdek, abituriyentlar hamda ularning yaqinlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani e'tirof etildi.

“Xalq so‘zi”

Yana bir jihat shuki, rezolyutsiyada ijtimoiy rivojlanish yo'nalishidagi real taraqqiyotni xolis baholash uchun mamlakatlarda milliy statistika tizimlarini takomillashtirish tavsiya etiladi. Bu islohotlar natijalarini "raqamlarda ko'rsatish" uchun emas, balki aholi hayotidagi haqiqiy o'zgarishlarni ilmiy-statistik tahlil qilish va kelgusi ijtimoiy-dasturlarni aniq maqsadli (targetli) rejalashtirish uchun muhim.

BMT Bosh Assambleyasida har qanday rezolyutsiyaning bir ovozdan qabul qilinishi bu juda murakkab, ko'pincha bosqichli va tinimsiz siyosiy-diplomatik mehnatning mahsulidir. O'zbekiston rezolyutsiyasining ma'qullanishi ham mamlakatimiz tashqi siyosiy idoralari va diplomatlarining yuksak mahorati va evoziga amalga oshdi. Hujjat matni tayyorlanganidan boshlab, to ovoz berish kuniga qadar O'zbekiston Respublikasining BMTdagi Doimiy vakolatxonasi tomonidan juda keng ko'lami siyosiy-diplomatik ishlar olib borildi. Loyiha bo'yicha BMTga a'zo davlatlar vakillari ishtirokida o'nlab rasmii va norasmii maslahatlashuvlar tashkil etildi. Har bir davlatning (ayniqsa, turli siyosiy bloklarga kiruvchi va manfaatli har xil bo'lgan mamlakatlarning) fikrlari va takliflari alohida ehishtildi.


Diplomatlarimizning asosiy yutug'i shunda bo'ldiki, ular BMT hujjatlarining universalligi tamoyillariga to'liq javob beradigan, siyosiy ixtiloflardan xoli va barcha a'zo davlatlarining – ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarining manfaatlarini birdek hisobga oladigan muvofozanlati matnini kelishib olishga muvaffaq bo'ldi. Aynan mana shunday yuksak diplomatik saviya taufayli hujjat hech qanday e'tirozlarisiz, bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

va monitoringdani o'zbekiston jarayonlariga parlamentlarni yanada faol jalb etish tavsifi qilinadi. Bu borada Ixtiyoriy milliy sharhlarni (VNR) tayyorlashda parlament a'zolarining ishtirokini ta'minlash, milliy majburiyatlarining hukumatlar tomonidan ijro etilishi ustidan tizimli va shaffof parlament nazoratini amalga oshirish, ijtimoiy rivojlanish loyihalarini hayotga tatbiq qilishda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish klavf va tavsiflari beqiyos ahamiyatga ega.

O'z navbatida, 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi butun dunyo parlamentlarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi huquqiydagi va siyosiy dasturlamal bo'lib qoladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi bu kabi ulkan yutuqlari Vatanimizda mustaqilligining 35 yillik to'ymasiga munosib tuhfa bo'lib va bu hujjat xalqimizning kelajakka ishonchini yanada mustahkamladi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ilhomjon TO'XTASINOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti rektori, professor.

PUBLITSISTIK TAFAKKUR QUDRATI



Kitob sarlavhasiga koʻchgan "MILLAT SHAHKATI" nomli maqola ana shunday fikrlash usulining yorqin namunasi desak, aslo adashmaymiz.

Muallif talqinida Samarqand – millat oʻzligini namoyon etadigan maʼnaviy makon. Shaharning tarixiy maqomini tiklash – binolarni taʼmirlash yoki koʻchalarni obod qilishdan ancha murakkab ish. Buning uchun shaharning koʻp asrlik ruhiyati, tarixiy xotirasi va sivilizatsiyaviy mohiyatini qayta harakatga keltirish talab etiladi.

Maqolada Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga rahbar boʻlib borgan davrda ishni shaharni chiqindilardan tozalashdan boshlaganiga alohida maʼno yuklanadi. Bu shahar ahli ongidan sovetcha qarashlarni, mustamlakachilikning maʼnaviy qoʻqimini chiqarib tashlash va ruhani yangilashga ilk urinish ham edi.

Muallif oddiy voqeani katta tarixiy jarayon bilan bogʻlaydi. Ammo bu bogʻlanish sunʼiy emas. U shaharning oʻtmishi, tarixiy xotirasi va keyingi oʻzgarishlar mantigʻidan kelib chiqadi.

Qudratilla Rafiqov publitsistikasida voqelik shunchaki tasvirlamaydi – unga juda katta maʼno yuklanadi. U hayot hodisalariga ruhshunos va faylasuf koʻzi bilan qarab, millat ahlini fikrlamaydigan olomonga aylantirish yoʻllari haqida: "...odam tinimsiz nimagardiy undab turilsa, matbuot ertadan to kech zarbdorlik, dala ishlari, yetib boʻlmaydigan "plan" haqida multikas gapiraversa, bu holat har qanday erkin tafakkurga ham putur yetkazadi. Odamlar fikrini jamoaviy tarzda bir nuqtaga "yigʻish", barcha oʻy-yaxollarni umumiy bir oʻzanga boʻysundirish, tabiiyki, shaxsiy fikrni jilovlaydi", deb yozadi.

Maqolada mustaqillikning dastlabki chorak asrida shaxs erkinligi faqat nazariy tushuncha, hurriyat qay maʼnodadir "qaram mustaqillik"dek tuyulishi, jamiyat elitlasida sovetcha yondashuvlardan voz kechish, erkin fikrdan choʻchish yoʻqolib ketmagani juda haqqoniy koʻrsatiladi.

Muallif maqola qahramoni tilining individualligini bir ogʻiz gapi, oʻsha gapdagi birgina soʻz bilan bera olish qobiliyatini namoyish qiladi: "...u kishi Samarqandda ishlayotgan davrlarda yonma-yon ketarkanmiz hazil aralash savol berdim. "Goh-gohida uxlab ham turasizmi, Shavkat Miromonovich?" U kishi oʻz odatiga sodiq holda jilmayib javob qildi: "Manzildan-manzilgacha moshinada nima qilish mumkin?". Bu jumla Prezident nutqining tabiiyligi va shaxsiy odatini koʻrsatishi bilan birga, uning ish surʼati haqidagi uzundan-uzoq taʼriflardan koʻra koʻproq maʼlumot beradi. Prezident xarakteri ana shunday kichik, ammo jonli detallar orqali ochiladi.

Kitobdagi "Men umrimni shu xalqqa tikkanman!" maqolasida esa Prezidentning islohotlardan koʻzlagan maqsadi uning oʻz soʻzlari orqali shunday ifodalanadi: "Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga ohsin, bolalari baxtli boʻlsin, nevaralari sogʻlom tugʻilsin, maktabi ishlasin, yoʻllari ravon boʻlsin deb ishga keldim...".

Bu samimiy fikr kitobning umumiy gʻoyasini anglab yetishda muhim ahamiyatga ega.

Siyosatshunos talqinida islohotlar insonning qadr-qimmatini, turmushi va kelajakka ishonchida namoyon boʻlishi kerak. Shu maʼnoda, kitobda Prezident obrazi nafaqat davlat rahbari, balki millat tafakkurini harakatga keltirishga intilayotgan yetakchi sifatida namoyon boʻladi.

"Bunyodkorlikdan tafakkur oʻzgarishi sari" maqolasi ham ana shu masala tadqiqiga bagʻishlangan. Oddiy maishiy manzara – Prezidentning zamonaviy savdo-konglochar markazga borishi jamiyatning farovonlikka munosabati, odamlarning bugun yaxshi yashash huquqi va rahbar bilan xalq oʻrtasidagi masofa haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Muallifning fikricha, katta islohot odamlarning oʻz imkoniyati, qadri va kelajagi haqidagi tasavvurini ham yangilashi kerak. Zero, tafakkur oʻzgarmasa, jamiyatdagi boshqa islohotlar barqaror boʻlmaydi. Bu – kitobning eng muhim falsafiy xulosalaridan biri.

"Uygʻonayotgan arslon" maqolasi maqsadini muallif: "...koʻzlagan manzilga intilayotgan bu jarayonda ulkan yutuqlarga erishayotgan Millatimiz lideri Shavkat Mirziyoyevning jasorat va sadoqatga evrilgan faoliyati haqida soʻzlash va bu kayfiyatni sizga ham ulashishdir" tarzida belgilaydi. Eʼtibor qiling, u axborot bermaydi, balki sogʻlom kayfiyat hosil qilib, uni oʻzgalariga-da ulashmoq istaydi.

Q. Rafiqov Prezidentning tinim bilmas faoliyatidagi yetakchi maqsad haqida: "...ming yillarki, ota-bobolari birga ahil-inoq yashab kelgan, ammo turli siyosiy sabablarga koʻra, ajralib va hatto ...bir-biroviga yovga aylanishga ozigina qolgan xalqlarimizni birlashtirish, siltab uzib olingan tarixiy tomlarga malham qoʻyish, bir zamonlar chuqur uyugqa ketgan "arslon"ni uygʻotish ekan...", degan toʻxtamga keladi.

Uxlayotgan arslonning, yaʼni shu vaqtga qadar birov tanimagan va tan olmagun yurtimizning uygʻonishini maqola muallifi oʻzbek sportchilarining 208 davlat vakillari qatnashgan Olimpiadada 13-oʻrinni, Osiyoda

4-oʻrinni, turkiy, musulmon va MDH davlatlari orasida 1-oʻrinni egallashida, 3 oʻzbek sportchisining "ikki karra olimpiya chempioni" boʻlgani, boks va shaxmatdagi tengsiz yutuqlarida koʻradi. Nega shu vaqtga qadar boʻlmagan bunday olamshumul natijalarga endilikda erishildi, deb savol qoʻyadi muallif. U hodisalar zamiridagi qonuniyatlarni topadi. Shu bois yuqorida sanalganlar shunchaki sportdagi bir yutuq emas, balki millatning har jihatdan dunyo hisoblashishi kerak boʻlgan subyektaga aylanib borayotgani natijasi, deb biladi.

"Kutib ol, dunyo" maqolasida muallif oʻz toʻxtamini dangal aytadi: "Mendan Shavkat Mirziyoyevning bugungacha el-yurtimiz oldidagi eng buyuk xizmati nima dan iborat, deb soʻrashsa, hech ikkilanmay, Oʻzbekiston va xalqimiz shaʼnini, obroʻsini qayta joyiga qoʻyganida, deb aytal oltan". Muallif bunga Prezidentning Oʻzbekiston deyilsa, hamisha "Pokiston", "Afʻgʻoniston" deb talmovsiraydigan dunyoga Oʻzbekiston va oʻzbekni adashmaydigan darajada tanitib qoʻyganini asos qilib koʻrsatadi.

Q. Rafiqovning oʻzlikni anglash, identifiklikka erishish istiqlolning dastlabki choragida ham koʻngildagiday boʻlmaganini: "...milliy kodning eng asosiy unsuri boʻlgan til borasidagi siyosatimiz eski zamonlarnikidan koʻp farq qilgan emas" yoʻsinida izohlashi holatga sogʻlom tanqidiy qarash namunasi, deyish mumkin. U mustaqillikning dastlabki chorak asrida davlat tiliga munosabat jamiyat kutgan darajada oʻzgarmaganini ochiq aytadi. Rasmiy mustaqillikka erishilgan boʻlsa-da, milliy tilning davlat, ilm-fan va xalqaro muloqotdagi mavqei toʻliq qaror topmagan edi.

Muallif Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron nutqini oʻzbekcha soʻzlar bilan yakunlaganini alohida maʼnaviy hodisa sifatida qabul qiladi. Chunki yaqin oʻtmishda maishiy munosabatlar doirasida qolib ketishi mumkin, deb qaralgan tilga jahonning yirik davlatlaridan biri rahbari hurmat koʻrsatmoqda.

Albatta, til obroʻsi faqat xorijiy rahbarning bir necha oʻzbekcha soʻzi bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy mavqei davlat boshqaruvi, ilm-fan, taʼlim, texnologiya va madaniyatda qay darajada ishlashiga bogʻliq.

Ammo ramziy hodisalar ham jamiyat ruhiyatiga taʼsir qiladi. Ular odamga oʻz tilining faqat uy va bozor

“Shavkat Mirziyoyevning qoʻshnilar bilan ochiq va samimiy muloqotni yoʻlga qoʻyishi bu muhitni oʻzgartirdi. Qatnovlar tiklandi, chegara masalalari oʻz yechimini topdi, iqtisodiy va madaniy aloqalar kengaydi.

Siyosatshunos bu jarayonni qardosh xalqlarning bir-biriga qayta yaqinlashuvi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, odamlar oʻrtasidagi tarixiy yaqinlik davlatlararo munosabatlar bilan mustahkamlanmasa, vaqt oʻtishi bilan zaiflashishi mumkin. Shuning uchun siyosiy rahbariyatning vazifasi mavjud yaqinlikni sunʼiy toʻsiqlardan himoya qilish va uni amaliy manfaatlar bilan boyitishdan iborat.

tili emas, dunyo bilan teng muloqotga kirisha oladigan madaniy qudrat ekanini his ettiradi.

Q. Rafiqov publitsistikasining kuchi shundaki, u siyosiy protokoldagi kichik bir detaldan milliy qadr-qimmat haqidagi katta xulosalarga keladi.

Chindan ham oʻzbek tilining obroʻsini oshirish borasida Prezident misli koʻrilmagun ishlar qildi. Tilni rivojlantirish departamenti hamda har bir tashkilotga davlat tili boʻyicha maslahatchi lavozimining tayinlanishi tilga eʼtibor borasida hech qayerda koʻrilmagun mislsiz ish boʻldi. Turkiy davlatlar tashkilotiga aʼzo boʻlish, oʻrtiq turk alifbosini qabul qilishga xayrixohlik oʻzligimizni namoyon etishning yorqin koʻrinishlaridir.

Maqolada muallif Prezidentning shu va shu kabi ishlari haqida toʻxtalgach: "bugun jahonning bizga boʻlgan qarashi ham, muomalasi ham oʻzgardi", degan xulosaga keladi. Ushbu maqolada Prezidentimizga Fransiya edi ikki asrdan oshiq vaqt davomida olamdagi oʻntagina kishiga berilgan "Faxriy legion" ordenining topshirilishi uning shaxsiga koʻrsatilgan jahonshumul ehtirom ekanini alohida taʼkidlaydi.

"MILLAT SHAHKATI" kitobida Markaziy Osiyo xalqlari oʻrtasidagi munosabatlarga ham keng oʻrin berilgan. Muallif Markaziy Osiyo, qoʻshni xalqlar yaqinlashuvini tarixiy tomlarni qayta bogʻlash, sunʼiy begonlashuvlarni yomirish va umumiy xotirani tiklash jarayoni sifatida koʻradi.

"Tarix sinovlaridan oʻtgan haqiqat: oʻzbek va qirgʻizni hech kim va hech qanday kuch bir-biridan ayira olmaydi" nomli maqolada oʻzbek va qirgʻiz xalqlari oʻrtasidagi azaliy doʻstlik va birodarlik rishtalari haqida soʻz boradi. Muallifning fikricha, oʻzbek va qirgʻiz oʻrtasida yuzaga kelgan sovuqlik, chegara muammolari va oʻzaro ishonchsizlik xalqlarning tabiiy munosabatidan kelib chiqmagan. Ular siyosiy qarorlar, yopiqlik va yechilmay kelgan muammolar oqibatida kuchaygan.

Shavkat Mirziyoyevning qoʻshnilar bilan ochiq va samimiy muloqotni yoʻlga qoʻyishi bu muhitni oʻzgartirdi. Qatnovlar tiklandi, chegara masalalari oʻz yechimini topdi, iqtisodiy va madaniy aloqalar kengaydi.

Siyosatshunos bu jarayonni qardosh xalqlarning bir-biriga qayta yaqinlashuvi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, odamlar oʻrtasidagi tarixiy yaqinlik davlatlararo munosabatlar bilan mustahkamlanmasa, vaqt oʻtishi bilan zaiflashishi mumkin. Shuning uchun siyosiy rahbariyatning vazifasi mavjud yaqinlikni sunʼiy toʻsiqlardan himoya qilish va uni amaliy manfaatlar bilan boyitishdan iborat.

Muallifning Oʻzbekiston Prezidenti aytgan "Bizga kuchli va farovon qoʻshni – Qirgʻiziston kerak" degan fikriga alohida urgʻu berishi ham bejiz emas.

Bu qarashda yangi tashqi siyosiy falsafa koʻzga tashlanadi: qoʻshnining zaifligi oʻzingning kuchingni oshirmaydi. Aksincha, beqaror va qashshoq atrof-muhit har qanday davlatning taraqqiyotiga xavf soladi. Farovon qoʻshni esa xavfsiz chegara, keng bozor, ishonchli sherik va umumiy taraqqiyot imkoniyati, demak.

Shu bois kitobdagi qoʻshnichilik mavzusi tashqi diplomatiya doirasidan chiqib, xalqlar taqdiri, tarixiy xotira va mintaqaviy kelajak masalasiga aylanadi.

Kitobdan oʻrin olgan maqolalardan biri "Alamim bor..." deb atalgan. Maqolada muallif alam bilan shunday

deydi: "...biz ham uzoq yillar afsonaviy tariximiz, madaniyatimiz, ajdodlarimiz kimu, bu dunyoda joyimiz qayerda boʻlganini unutdik. Dunyoning cheti, uchinchi darajali bir davlat, xalq deb qarashlariga koʻnikdik. Va eng alamlisi, zamonaviy dunyo sahnidagi madaniy va tarixiy oʻrnimiz qumga singgan suvday "yoʻqolib" qoldi..."

Muallif tarixni necha bor tahrir etgan etnos va uning yurti uchun ahlining koʻpchiligi yodidan chiqqanidan alami keladi. Bu hol olamga oʻzimizni qayta tanitish zaruratini paydo qilganini urgʻulaydi. Prezidentning: "...Nima uchun Islom sivilizatsiyasi markazini qildik? Millatimizning shonu shavkatini tarixga muhrlab qoʻyish uchun. Bu yerga kirgan odam chiqqandan keyin bu millatga taʼzim qilishi uchun qildik buni...", deganida ana shu tarixiy zarurat zohir boʻlgan. Maqolada millatu Vatanning qadr-qimmatini joyiga qoʻyish, shonu shavkatini ulugʻlash Shavkat Mirziyoyevni mudom oʻylantiradigan orzu ekani qayd etiladi.

Muallif tarixga ehtiyoat va ehtirom bilan munosabatda boʻlish zarurligini, unga nosogʻlom yondashuv bugunga ham salbiy taʼsir qilishini urgʻulaydi: "...bizda tarixga nazar turli davrlarda turlicha boʻlgan. Shunday vaqlar boʻldiki, baʼzan uning itoatkor quliga aylandik. Baʼzan esa undan faxrlanish bilangina oʻzimizni ovutdik. Bilganimizcha toʻqib-bichdik, qoʻlga qaychi olib, istagimizga mosladik".

Maqolada Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida turli xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari borligi, shuningdek, "Al-Furqan" jamgʻarmasi, Oksford Islom tadqiqotlari markazi, Turkiya, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarining 100 dan ortiq ilmiy institutlari, muzey va kutubxonalari filiallari ochilishi uning jahoniy maqomga egaligini bildirishi taʼkidlanadi. Millat tarixidagi ikki Renessans ham "...madaniyatlar almashinuvi, jahon ilm-faniga integratsiyalashuv orqali yuz bergan"ligi urgʻulanadi. Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ayni shu integrativ jihati bilan yangi Renessansga asos boʻlishi mumkinligi aytiladi. Markazda dunyoning koʻplab ilm maskanalari, madaniy institutlar boʻlimlari mutaxassislarining oʻzbek olimlari bilan hamkorligi yoʻlga qoʻyilishi uning navbatdagi milliy Uygʻonishga xizmat qilishini dalolatlashiga toʻxtalindi.

Siyosatshunos bugun qilinayotgan ishlar bilan

oʻqitilmoqda. Holbuki, ularning oʻtmishi bir edi". Bu xilmaxlilik mintaqadagi etnoslar oʻrtasida bir-biroviga yotsirab qarashga xizmat qilishi muallif tomonidan afsus bilan koʻrsatib oʻtiladi. Muallif identifiklik (kimlik yoki oʻzlik) tushunchasining asosini til, madaniyat, tarix, tarixiy xotira, din tashkil etishini taʼkidlab, bularni inkor qiladigan, mafkuraviy vakuum jamiyat uchun ham, davlat uchun ham xatarli ekaniga alohida urgʻu beradi. Biror sohada fikr va munosabat erkining yoʻqligi, ruxsat berilishiga qarab oʻylash mumkinligi taraqqiyotga gʻov boʻladi. Lekin egamanlikning dastlabki choragida maqolada aytilganidek: "...dekolonial kontekstdagi kimlik, anʼanalar silsilasi, oʻtmish, etnik mansublik yoki millat, milliy davlat tushunchasi va hatto tarixiy shaxslarga nisbatan qarashlarimizni ham hukmron rejim belgilab berdi. Va qanchalik gʻalati ehsitilmasin, aynan shu qarashlari bilan u oʻzi inkor etayotgan sotsial mafkuraning "yoʻnilgan" muqobiliga aylandi". Chindan shunday edi.

Maqolada Shavkat Miromonovich tomonidan qoʻshnilar oʻrtasidagi "muz"larni eritish, ular bilan samimiy munosabatlarni tiklashga kirishishning samarasi oʻlaroq, 2018-yilga kelib, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi ish boshlagani qayd etiladi. Garchi tuzilma yariminstitutional boʻlsa-da, uzoq yillik tanaffus va oʻzaro tushunmovchiliklardan keyingi bir-birini anglash, fikrni bir joyga jamlab olish uchun oʻta muhim platforma vazifasini bajargani taʼkidlanadi. Muallif: "Oʻzbekiston bir asrlik tarixida ilk bor oʻzining turkiy etnosga mansubligini rasman eʼlon qildi", deb yozadi iftixor bilan.

Olimning nemis jurnalisti bilan suhbatda egamanlikning dastlabki yillarida yurtimizdagi holat haqida aytgan: "...davlatning rasmiy tarzda oʻzini ifoda etadigan, egamanligini tasdiqlaydigan barcha ramzlar: bayroq, gerb, madhiya, pul, armiya, chegaralari bor, ammo ularga qoʻshimcha yana qandaydir notugʻallik ham borday edi. Oʻzbekistonning davlat sifatida milliy "kim"ligidan boʻlak hamma narsasi bor edi. Uning qalbi – oʻzligi yoʻq edi. ...U bir asrdan ortiq vaqt nari sugʻurib olingan qalbini qidirayotgan, uningis oʻzini notugal va noraso sezayotgan edi" tarzida ogʻriqli, ammo haqqoniy fikrlari har qanday odamni jiddiy oʻyga tolishga majbur qiladi. Muallif millat oʻzligini qayerdan izlashi va qanday topishi haqida juda jiddiy va gʻoyat ehtirosli fikr yuritadi. U shonli tarixga ega millatning shu tarixga munosib buguni boʻlishi kerakligini, bugunni esa juda yaxshi va haqqoniy oʻrganilgan oʻtmish ustigagina qurish mumkinligini, yurning shonli tarixi shunchaki xotira emas, balki bugun va kelajak qurilishi kerak boʻlgan poydevor boʻlishi lozimligi yangligʻ salmoqli fikrlar haroratli yoʻsinda ifodalanadi. Prezident bunoyd etayotgan "Yangi Oʻzbekiston" eskisidan millatning oʻzligini topishga yoʻnatirilgani bilan farq qilishini taʼkidlaydi.

Kitobdagi bir maqola "Bizni ulugʻ gʻoya – Vatan manfaati birlashtiradi" deb ataladi va unda mamlakat kasaba uyushmalarining rivojida Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻrni qayd qilinadi. Muallif: "Roʻyrost eʼtirof etish kerak, nodavlat tashkiloti boʻlmish kasaba uyushmalarining "oʻzgarishi" Oʻzbekiston rahbari sifatida ish boshlagan ilk kunlarga toʻgʻri keladi. Prezidentimizning xalq davlat uchun emas, davlat odamlar uchun xizmat qilishi kerak, degan insonparvar siyosati mamlakatimizdagi nafaqat davlat, balki jamoat tashkilotlari uchun ham oʻli chaqiriq boʻldi", deb yozadi va bunday yondashuv nodavlat tashkiloti boʻlmish kasaba uyushmalarining ravnaqiga kuchli siyosiy va huquqiy asos boʻlganini qayd etadi. Muallif Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelganga qadar boʻlgan davlat gʻoyasi: "Davlatni, nodavlatni – har qanday tashkilot va muassasa borki, bitta "ustun" oʻyoga boʻysundirilgandi. Bu oyogʻi loyga botib qolgan agrar sohani qilogʻidan tortish siyosati edi", deya ochiqchasiga yozadi.

Qudratilla Rafiqovning kitobi, garchi oʻta jiddiy ijtimoiy-siyosiy va amaliy pragmatik masalalar tadqiqiga bagʻishlangan boʻlsa-da, juda tushunarli va hazmi oson yoʻsinda bitilgan. Bunga muallif ifoda samimiyati va tabiiyligi orqali erishgan. Muallif oʻqirman bilan yuzma-yuz turganday yozadi: "Sezib turibman, maqolaning soʻnggi qismlari sizni zeriktirdi. Ensangizni qotirgan boʻlsa ham ajablanmayman. Ruhi, matndagi xronologik ohang sovet ...davri kayfiyatini eslatuvchi ayni yoʻnalish bugun hayotimizda favqulodda "begona"ga aylanib qolgandek...". Bunday dangal iqrar oʻziga ishongan yozar tomonidagina qilinadi. Negaki, u keyingi oʻrinlarda oʻqirmanni oʻziga ergashtira olishiga ishonadi. Uslub jozibasi, ifoda ravonligi, soʻzlarni oʻrinni qoʻllash mahorati kitobning oʻqishli boʻlishiga xizmat qilgan.

Muallifning "sanoat qoʻqimi", "desovetizatsiya", "kunlash" (hasad qilish), "qoʻrli" (ustuvor, hurmatli), "bonitet" (yer unumdorligi), "aktorlar" (harakatdagi, faoliyatdagi), "markaz"ning qirizmi gumbazli saroylari", "buzmakor" (destruktiv), "tarix ikonasi" (tarix hashami), "multikulturalizm" (koʻpmadaniyatlilik) singari oʻta kam ishlatiladigan soʻzlarni oʻrnida qoʻllay bilishi uning yoziqclariga betakrorlik baxsh etgan.

Meni bir oʻqirman sifatida kitob muallifining bitiklariga sarlavha qoʻyish mahorati oʻqini qoldirdi. Avvalo, kitobning nomi bir necha maʼnoli ekani bilan davoqlati tortadi: uni "Millatning shavkati" yoki "Millatning shavkati oʻgʻli" yoxud "Millatning Shavkat Mirziyoyevi" tarzida tushunish va talqin qilish mumkin. Qizigi, bu versiyalarning har biri ham bitik mohiyatiga toʻla mos keladi. Shuningdek, maqolalarning "Shavkat Mirziyoyev" "Men umrimni shu xalqqa tikkanman!", "Bizni ulugʻ gʻoya – Vatan manfaati birlashtiradi", "Bunyodkorlikdan tafakkur oʻzgarishi sari", "Oʻzbekistondan "Yangi Oʻzbekiston" gacha: yoʻqotilgan qalbni izlab...", "Uygʻonayotgan arslon", "Kutib ol, dunyo" singari tarzda nomlanishi kishini beixtiyor oʻziga jalb etadi.

Ullas, bu kitob oʻqirmanni jamiyatda yuz berayotgan oʻzgarishlardan xabardor qilibgina qolmay, bu oʻzgarishlar muallifi boʻlmish Prezidentimizga yanada yaqinlashtiradi, hamfikrga aylantiradi.

Qozoqboy YOʻLDOSH,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori.

BUXORO

tomonlarda...

Izlanganga imkon koʻp

"Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida ajratilgan 170 mln. soʻm miqdoridagi imtiyozli kredit shofirkonlik ishbilarmon Asliddin Sayfiddinovga yangi ish oʻrinlari yaratish imkonini berdi.



Uning "Pattaxon tekstile" deb nomlangan korxonasida 15 nafar kishi doimiy ish oʻrniga ega, shundan yetti nafari jismoniy imkoniyati cheklangan, nogironligi boʻlgan fuqarolar. Ular durustgina maosh olib, oilalariga daromad keltirmoqda.

Masalaning ijtimoiy jihati ham bor. Yaqin-yaqingacha bu fuqarolar uyda oʻtirib qolish ortidan oʻzlarini jamiyat uchun keraksizdek his etishar, bu esa ularning ertangi kunga boʻlgan ishonchiga putur yetkazayotgan edi. Endi esa ahvol tubdan oʻzgardi.

"Pattaxon tekstile" korxonasida ishlab chiqarilayotgan choyshab, yostiqlik, kiyim-kechaklar birja savdolari orqali maktabgacha taʼlim tashkilotlari, shifoxonalarga, bir qismi esa savdo shoxobchalariga yetkazilmoqda. Mahsulotlarning sifati, qolaversa, nogironlari boʻlgan fuqarolarga ish oʻrni yaratishdek savob ish tadbirkorga korxona faoliyatini kengaytirish uchun ragʻbat uygʻotmoqda. U istiqbolda jismoniy imkoniyati cheklangan yana oʻnga yaqin fuqarolarni mehnat bozoriga jalb etish niyatida.

Sohil boʻyida fayzli maskan

Mamlakatimizning eng chekka qoʻshalaridan sanalgan Olot tumanining "Amu – Qorakoʻl" kanali boʻyida "Sohilboʻyi" dam olish maskani barpo etildi.



Umumiy qiymati 510 mln. soʻm boʻlgan loyihaga koʻra kanal qirgʻoqlari betonlashtirildi. Sohil boʻylab piyodalar yoʻlaklari, zamonaviy oʻrindiq, himoya toʻsiqlari, tungi yoritish chiroqlari oʻrnatildi. Bolalar oʻyin maydonchalari, turli xizmat shoxobchalari qurildi. Pirovardida oʻziga xos meʼmoriy yechimga ega maskan yuzaga keldi. U xizmat koʻrsatish sohasida 50 tadan ziyod ish oʻrinlari yaratilishiga ham sabab boʻldi.

– Hududimizda yoz nisbatan issiq keladi, – deydi mehnat faxriysi Gulchehra Roʻziyeva. – Jazirama zabtiga olgan shu kunlarda bunday koʻngilochar maskanning foydalanishga topshirilishi yurtdoshlarimizni bениhoya xursand qildi. Bu yerda oilaviy kelib miriqib dam olish uchun barcha qulaylik yaratilgan.

Eʼtiborlisi, Olotga qoʻshni Qorakoʻl tumanida ham xuddi shunday dam olish zonasi barpo etildi. Mazkur soʻlim goʻshalar har ikkala tumanda ekologik muhitni yaxshilash, turizmni ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq soʻzi").

1-avgustdan boshlab migratsiya va personallashtirish sohasida boshqa shaxsning roziligi talab etiladigan davlat xizmatlarini koʻrsatishda ularning shaxsini "Face-ID" yoki "MyID" tizimlari orqali masofadan turib aniqlash va roziligini olish imkonini beruvchi "E-Rozilik" platformasi ishga tushiriladi.

IJTIMOIIY-IQTISODIIY MASALALARNING HUQUQIIY ASOSI



Shuningdek, qishloq xoʻjaligida chorvachilikni ravnaq toptirish, imtiyozli kreditlar ajratish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini kengaytirish hamda ichki bozorda narx-navo barqarorligini taʼminlash yuzasidan belgilangan vazifalar ham agrar soha taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishi alohida qayd etildi.

Fraksiya yigʻilishida “Kapital bozori toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi atroflicha koʻrib chiqildi.

Bu bilan aholi va investorlar uchun yangi moliyaviy vositalar, xususan, sukuk – islom obligatsiyalari, barqaror rivojlanish obligatsiyalari, qoplangan va sekuritizatsiyalangan obligatsiyalar muomalaga kiritilishi qayd etildi. Shuningdek, investorlar va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish tizimi kuchaytiriladi, bozor infratuzilmasi faoliyati tartibga solinib, kapital bozorining investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi.

Fraksiya aʼzosi Otabek Musurmonovning taʼkidlashicha, qonun loyihasida belgilanayotgan normalar mamlakatimizda kapital bozorini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga, zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga yoʻl ochadi.

Yigʻilishda qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlanib, kun tartibidan oʻrin olgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni taʼminlash kafolati

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari Konstitutsiyaviy sud tomonidan himoya qilinishining takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi muhokamadan oʻtkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda oʻzlariga nisbatan qoʻllanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi kafolatlandi. Shuningdek, sudlar tashabbusi bilan Oliy sud orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Qonun loyihasi mazkur konstitutsiyaviy yangiliklarni amalda toʻliq roʻyobga chiqarish, Konstitutsiyaviy sud qarorlarining sud amaliyotida samarali ijrosini taʼminlash hamda buzilgan huquqlarni tiklashning aniq protsessual mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan.

Loyihada sudlar tashabbusi bilan Oliy sud tomonidan muayyan ishda qoʻllanilishi lozim boʻlgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi masalasi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat kiritilganda tegishli ish yurituvini toʻxtatish belgilanmoqda.

Fraksiya aʼzolarining taʼkidlashicha, qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega boʻlib, uning qabul qilinishi sud amaliyotida huquqiy aniqlikni taʼminlaydi, buzilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni

tiklash imkoniyatlarini kengaytiradi, ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etadi.

– Qonun loyihasi yigʻilishda atroflicha va har tomonlama muhokama qilindi, – deydi fraksiya aʼzosi Sherzod Toʻxtashev. – Mazkur hujjat inson huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasining huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilganini inobatga olib, uni qoʻllab-quvvatladik.

Noqonuniy mehnat faoliyatiga qarshi huquqiy mexanizmlar kuchaytirilmoqda

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

U chet el fuqarolari va fuqarolari boʻlmagan shaxslarning Oʻzbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq munosabatlarni yanada tartibga solish, noqonuniy mehnat faoliyatining oldini olish hamda migratsiya sohasida qonun ustuvorligini taʼminlashga qaratilgan.

Loyihada Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga bir qator muhim oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, chet el fuqarolari yoki doimiy ravishda boshqa davlatlar hududida yashayotgan fuqaroligi boʻlmagan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi buzilgan taqdirda maʼmuriy javobgarlik belgilanmoqda. Agar mazkur huquqbuzarlik takroran sodir etilsa yoki belgilangan jarima toʻlanmasa, ularni Oʻzbekiston Respublikasi hududidan maʼmuriy tarzda chiqarib yuborish hamda muayyan muddatga mamlakatimizga kirish huquqini cheklash choralari qoʻllanilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, mazkur toifadagi huquqbuzarliklar boʻyicha ishlarni koʻrib chiqadigan sudlar va vakolatli davlat organlarining vakolatlari ham aniqlashtirilmoqda.

Tanqidiy-tahliliy ruhda oʻtkazilgan muhokama jarayonida fraksiya aʼzosi Zuhridin Mavlonov loyihada nazarda tutilayotgan ayrim normalar huquqni qoʻllash amaliyotida qanchalik samarali ishlashiga oid savolni oʻrtaga tashladi. Jumladan, deputat chet el fuqarosi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsning mamlakatimiz hududida tasdiqнома olmasdan yoki amal qilish muddati tugagan tasdiqнома asosida mehnat faoliyati bilan shugʻullanganligi uchun maʼmuriy javobgarlikka tortilishiga qarshi ekanligini bildirdi. Xalq vakili bu kabi huquqbuzarlik uchun taʼsir chorasini faqatgina ish beruvchiga nisbatan qoʻllanilishi maqsadga muvofiqligi bilan bogʻliq fikr-mulohazalarini bayon etdi.

– Belgilanayotgan normalar fraksiya aʼzolari tomonidan atroflicha muhokamadan oʻtkazildi, – deydi fraksiya aʼzosi Tohir Polvonov. – Ushbu qonunning qabul qilinishi chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishda qonunchilik talablariga qatʼiy

rioya etilishini taʼminlash, noqonuniy mehnat faoliyatining oldini olish, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligiga erishish hamda migratsiya sohasida qonun ustuvorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa qonuniy mehnat bozorini rivojlantirish va davlatning migratsiya siyosati samaradorligini oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Muhokama yakunida fraksiya aʼzolari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar inobatga olingan holda mazkur qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

Muhim takliflar ilgari surildi

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida koʻp kvartirali uylar va boshqa koʻchmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Muhokama chogʻida mazkur qonun loyihasi partiyaning Saylovoldi dasturida belgilangan aholi mablagʻlari jalb etiladigan uy-joy qurilishida huquqiy kafolatlarni kuchaytirish vazifalariga hamohang ekani alohida taʼkidlandi. Fraksiya aʼzolari qonun loyihasi konsepsiyasini qoʻllab-quvvatlar ekan, uning ayrim normalarini yanada takomillashtirish boʻyicha qator takliflarni ilgari surdi.

Xususan, deputat Anvarxon Temirov qurilishni moliyalashtirish tizimiga oid normalarga toʻxtalib, eskrou hisobvaraqlari mexanizmini joriy qilish qurilish obyektlari tannarxiga taʼsir etmaydimi, davlat subsidiyalari va boshqa moliyaviy qoʻllab-quvvatlash vositalari mazkur tizimda qanday amal qilishi masalalariga aniqlik kiritishni soʻradi.



Shuningdek, qonun loyihasida nazarda tutilgan muammoli qurilish obyektlari reestri yuzasidan ham takliflar bildirildi. Xususan, reestrga kiritilgan, ammo undan chiqarilmagan obyektlarning keyingi huquqiy maqomini qonun darajasida aniq belgilash zarurligi taʼkidlandi.

Masʼullar qurilishni moliyalashtirishning asosiy manbalari saqlanib qolishi, eskrou tizimi esa fuqarolar mablagʻlarining xavfsizligini taʼminlashga xizmat qilishini qayd etdi. Unga koʻra, qurilish uchun yoʻnaltirilayotgan mablagʻlar bank nazorati ostida boʻladi, ipoteka kreditlari va davlat subsidiyalari ham shu tizim orqali jalb qilinadi. Bu esa mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va ulushdorlar huquqlarining kafolati himoyasini taʼminlaydi.

Qonun tashabbuskorlari tomonidan keltirilgan tahlillarga koʻra, quruvchilar va ulushdorlar oʻrtasida tuzilgan 129 ta shartnoma oʻrganilgan. Natijada shartnomalarning 84 foizida qurilish obyektining kafolat muddati belgilanmagan, 80 foizida qayta hisob-kitoblarda quruvchilar manfaatli ustun qoʻyilgani, atigi 20 foizida tomonlar huquqlari muvozanatli aks etgani aniqlangan. Shuningdek, 51 foizida obyekt oʻz vaqtida topshirilmagani taqdirda quruvchining javobgarligi nazarda tutilmagan hamda ayrim shartnomalar davlat roʻyxatidan

oʻtkazilmagani maʼlum boʻlgan.

Shundan kelib chiqib, deputat Zokirjon Zohidov ulushli qurilish shartnomalarining mazmuniga eʼtibor qaratib, fuqarolar huquqlarini toʻliq taʼminlaydigan, tushunarli va huquqiy jihatdan muvozanatli namunaviy shartnomalar tuzish taklifi ilgari surdi.

Adliya vazirligi vakillari qonun loyihasida shartnomalarning majburiy shartlari hamda ularga kiritilishi mumkin boʻlmagan qoidalarni aniq belgilanayotganini, bu esa bir tomon manfaatini asossiz ustun qoʻyuvchi shartlarning oldini olish va ulushdorlar huquqlarini kuchaytirishga xizmat qilishni bildirdi.

Muhokama yakunida fraksiya aʼzolari qonun loyihasini qoʻllab-quvvatlad.

Ulushli qurilishni moliyalashtirish mexanizmlari aniq belgilanmoqda

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Koʻp kvartirali uylar va boshqa koʻchmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda aholi farovonligini yuksaltirish va yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, qulay infratuzilma yaratish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, uy-joy sohasini izchil rivojlantirish va aholi uchun qulay boʻlgan shaharsozlik faoliyati boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aholini munosib va arzon uy-joy bilan taʼminlash maqsadida qurilish sohasida tadbirkorlik subyektlari uchun qator zarur shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida soʻnggi toʻqqiz yilda mamlakatimizda qariyb 10 mingta yangi qurilish korxonalari ish boshladi.

Oʻtgan yillar mobaynida 647 ming xonadonli 15 mingdan ortiq koʻp qavatli uy-joylar barpo etildi.

Qurilish ishlari hajmi tez surʼatlarda oʻsishi ulush kiritish asosida koʻp kvartirali uylarni qurish sohasidagi munosabatlarni huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va mazkur munosabatlarni qonun hujjati bilan tartibga solish, sohada vakolatli davlat organlari, qurilish tashkilotlari vazifalari, huquqlari va javobgarligini aniq belgilashni taqozo etmoqda.

Qonun loyihasida koʻp kvartirali uylar va boshqa koʻchmas mulk obyektlari qurilishiga jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablagʻlarini jalb qilish tartibi, quruvchi qurilish obyektini elektron platformada roʻyxatdan oʻtkazganidan soʻng qurilish obyektini qurish uchun ulushdorlarning mablagʻlarini jalb etishi, elektron platformada qurilish obyekti toʻgʻrisidagi maʼlumot va hujjatlarni barcha uchun ochiq holda joylashtirish, ulush kiritish asosida qurilayotgan obyektlardan xonadon xarid qilish, shartnomalarni rasmiylashtirish onlayn ravishda ushbu elektron platforma orqali amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, loyihada koʻp kvartirali uylar va boshqa koʻchmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish yoʻnalishida davlat va jamoatchilik nazoratini olib borish tartibi nazarda tutilmoqda.

– Mazkur qonun loyihasi qurilishga ulush kiritishning amaldagi mexanizmini tubdan takomillashtirishga, ulushdorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlashga, ulush kiritish asosidagi qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirishga, ulushli qurilishni moliyalashtirish mexanizmlarini aniq belgilashga hamda sohada jamoatchilik nazoratini mustahkamlashga xizmat qiladi, – deydi fraksiya aʼzosi Gulchehra Tojiboyeva.

Qizgʻin muhokamadan soʻng qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.

Oʻzbekistondagi ilk “yashil” yoʻli:

AHOLI UCHUN ZAMONAVIIY QULAYLIKLAR

Mamlakatimizda yana bir strategik loyiha – Toshkent – Samarqand yoʻnalishida pullik muqobil avtomobil yoʻli qurilishi boshlandi. Tarixiy voqeelik munosabati bilan oʻtkazilgan marosimda ishtirok etgan davlatimiz rahbari loyiha Yangi Oʻzbekistonning iqtisodiy qudrati va transport-logistika salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻlishini, sohada tom maʼnoda yangi davr boshlanayotganini bejiz taʼkidlagani yoʻq.

Aks sado

Oʻrta Chirchiq tumanidan boshlanuvchi olti polosali yoʻlning uzunligi 282 kilometrni tashkil etadi va loyiha qiymati qariyb 2.2 mlrd. dollarga baholangan. Yoʻlning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi aholisi ikki milliondan ziyod boʻlgan 13 ta tuman orqali oʻtishi, shubhasiz, hududlar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Jumladan, strategik loyiha doirasida yuzga yaqin koʻpriklar, oʻnlab yoʻl toʻkzighi va tunnellar, qishloq xoʻjaligi ehtiyojlari uchun yer osti yoʻlaklari va suv oʻtkazish inshootlari barpo etiladi. Yoʻl boʻyida logistika markazlari, omborlar, sanoat va agrosanoat korxonalari, savdo-servis, mehmonxona va turizm obyektlari qurilishi esa yangi ish oʻrinlari, xizmatlar bozori, mahalliy aholi va byudjetlar uchun qoʻshimcha daromad manbai degani.

Xalqimiz uchun eng muhim afzalligi Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti hozirgi 5 soatdan 2,5 soatga qisqarishi. Tekis hududlarda harakat tezligi soatiga 150 kilometrni tashkil etadigan yangi avtomagistral sutkasiga 60 mingdan 80 mingtagacha transport vositasini oʻtkazish imkoniga ega boʻladi.

Yana bir muhim jihat: zamonaviy xavfsizlik yechimlari, raqamli va innovatsion qulayliklar yoʻl-transport hodisalarining keskin kamayishiga xizmat qiladi. Tirbandliklarsiz va bir maromda harakatlanish energiya sarfi, amortizatsiya va texnik xarajatlarni ham qisqartiradi.

Loyihaning iqtisodiy tomonlari haqida gap ketganda, avvalo, yuk tashish tannarxi 19 – 24 foizga pasayishini taʼkidlash lozim. Shuningdek, tez buziladigan meva-sabzavot, goʻsht, sut va boshqa mahsulotlarni bozorlarga qisqa vaqtda, sifati va arzon yetkaziladi. Yangi yoʻl oʻtadigan hududlarda yalpi mahsulot 3 foiz oʻsadi. Yoʻl qurilishida mahalliy xizmatlar va qurilish materiallaridan keng foydalanilishi esa yirik buyurtmalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va qoʻshimcha ish oʻrinlarini yaratadi. Umuman olganda, Jahon banki tahlillariga koʻra, bunday infratuzilma loyihalariga kiritilgan har bir dollar iqtisodiyotga 5 barobargacha samara keltiradi.

Avtomagistral Yevropa, Turkiya, Xitoy va boshqa davlatlarning ilgʻor tajribalari asosida loyihalashtirilgan boʻlib, birinchi bosqichda yoʻl xitoylik hamkorlar bilan EPC modeli asosida barpo etiladi. Yaʼni ijrochi loyihalash va texnik hujjatlarni olishdan boshlab, qurilish ishlarni tugatishgacha boʻlgan barcha ishlarni oʻz zimmasiga oladi. Keyinchalik uni boshqarish, saqlash va ekspluatatsiya qilishning zamonaviy mexanizmlari joriy etiladi. Loyiha xalqaro sifat, xavfsizlik va ekologik standartlar asosida amalga oshiriladi.

Albatta, ushbu strategik loyihani ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish oson boʻlgani yoʻq. Avval bu boradagi xorijiy tajriba puxta oʻrganildi. Chet el mutaxassislari yordami bilan bir necha loyihalar tayyorlandi, qurilishi va moliyaviy manbasi boʻyicha xorijlik investorlar bilan muzokaralar oʻtkazildi. Loyihalarni ishlab chiqishda, avvalo, aholi fikri inobatga olindi. Atrof-muhitga taʼsiri, pyodalar uchun toʻsiqsiz muhit yaratish boʻyicha qatʼiy talablar qoʻyildi.

Shu bilan birga, sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirildi. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan oʻtgan yili “Avtomobil yoʻllari toʻgʻrisida”gi yangi qonun loyihasi qabul qilinib, pullik yoʻllar tarmogʻini barpo etishning huquqiy asosi yaratildi. Davlat-xususiy sheriklik asosida yoʻl infratuzilmasiga sarmoya jalb qilish maqsadida xorijlik investorlarga imtiyozlar berildi. Bunda pullik avtomobil yoʻllarini qurishga faqat muqobil bepul harakatlanish yoʻli mavjud boʻlgandagina ruxsat berish, shu bilan birga, toʻlov miqdori foydalanuvchilarning jittimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qanoatlantirishi talabi qoʻyildi.

Muxtasar aytganda, 2030-yilda foydalanishga topshiriladigan Oʻzbekiston tarixidagi ilk “yashil” va innovatsion yoʻl, Prezidentimiz taʼkidlaganidek, mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiy barqarorligi va xalqimiz farovonligi uchun yana bir mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Goʻzal SAMIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

REKLAMA

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

«TEMURBEKLAR MAKTABI» HARBIY-AKADEMIK LITSEVI

QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV EʼLON QILADI:

taʼlim sifatini taʼminlash bosh mutaxassisi;
Psixologiya va tarbiya kafedrasini mudiri;
ingliz tili oʻqituvchisi;
laborant;
xoʻjalik mudiri.

Tanlovda nomzodlarga quyidagi talablar qoʻyiladi:

1. Pedagoglarga:

tegishli ixtisoslik boʻyicha ilmiy daraja (PhD, DSc) va ilmiy

unvonga (professor), shuningdek, tegishli mutaxassislik boʻyicha yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja va unvonlarga egaligi, shu bilan birga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli qarori talablariga muvofiq, kamida 5 yil uzluksiz pedagogik ish stajiga ega boʻlishi shartligi koʻrsatib oʻtilgan.

Bundan tashqari, nomzod Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunini, Oʻzbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli “Oʻsmirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorini bilishi shart.

2. Mutaxassislarga:

oʻz mutaxassislilklari boʻyicha yetarli bilim va koʻnikmaga ega boʻlishlari, kompyuterda ishlashni va turli xil dasturlarni oʻrnatib bilishi shart.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

Hujjatlar eʼlon chiqqan kundan boshlab 1 oy muddat ichida qabul qilinadi.
Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar koʻchasi, 3-“A” uy.
Murojaat uchun telefon: 71-217-81-01.

Toshkentda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish maqsadida “Tashkent International Half Marathon” doirasida 5 kilometr masofaga yugurish boʻyicha maxsus aksiya boshlandi.

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi – 629. Buyurtma G-742. 16 692 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoʻgʻoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi maʼlumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
eʼlonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqzir qilinmaydi va mulqiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi masʼul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov koʻchasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhah S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon koʻchasi, 41. OʻZA yakuni – 00.15 Topshirildi – 00.20

1 2 3 4 5 6